

**BYUDJET XARAJATLARIDAN MAQSADLI FOYDALANISHDA
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT ORGANLARINING O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398622>

Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Sharapova Mashxura Azadovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti dotsenti

sharapovamash@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada byudjet xarajatlaridan maqsadli foydalanishda davlat moliyaviy nazorat organlarining o'rni, jumladan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining vaifalari hamda bugungi kunda ushbu organlarning faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat byudjeti, byudjet xarajatlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi*

Hozirgi kunda har qanday davlat o'z byudjeti xarajatlari va daromadlari ustidan kuchli nazoratni amalga oshiradi. Chunki ortiqcha byudjet sarfi kelgusi davr uchun byudjet daromadlari va xarajatlarini to'g'ri prognozlashda to'siq bo'ladi. Aslida davlat byudjetining xarajatlari optimallashtirish har bir mamlakatning iqtisodiyotini samarali boshqarishning muhim qismi hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu dolzarb masalaga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz rahbari boshchiligida 2024-yil uchun davlat budjetining asosiy yo'nalishlari hamda tarmoq va hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar muhokama qilindi va davlat budjeti daromadlarini ko'paytirish, xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha har bir soha, tarmoq va hududlar kesimida mavjud zaxira va imkoniyatlar atroflicha tahlil qilindi. Kelgusi yildan "Mahalla byudjeti" tizimi to'liq joriy qilinadi. Bu – har bir mahallaning 100 million so'mgacha mablag'i bo'ladi, degani. Davlatimiz rahbari bu mablag'larni mahallada ish o'rni yaratadigan, aholining og'irini yengil qiladigan loyihalarga yo'naltirish zarurligini ta'kidladi.

Ushbu yangi tizim bo'yicha mahalla raislarini o'qitish, mablag'larning hisobini yuritish va nazorat qilish yuzasidan ko'rsatmalar berildi[1].

Dunyodagi barcha mamalakatlar qatori Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli foydalanish, byudjet xarajatlarini optimallashtirish vazifalari mamlakatdagi davlat moliyaviy nazorat organlari zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ularning tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar kiradi[2].

Oliy nazorat va tashqi audit organi sifatida davlat mablag'laridan samarali foydalanishda Hisob Palatasi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan[3]:

Hisob palatasining byudjet nazorati sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini ekspertizasini hamda o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o'tkazish;
- davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- budjet tizimi budjetlariga mablag'lar tushumlarining to'liqligini, shuningdek yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan choralarning amalga oshirilishini o'rganish hamda nazorat qilish;
- budjet tizimi budjetlarining daromadlarini ko'paytirish zaxiralarini aniqlash hamda safarbar qilish;
- budjet tizimi budjetlarining amalga oshirilayotgan xarajatlari samaradorligi hamda qonuniyligini auditdan o'tkazish, bu xarajatlarni barcha darajalarda qisqartirish imkoniyatlarini aniqlash;
- soliq, bojxona va budjet to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishga, tizimli qoidabuzarliklar sabablarini, shuningdek xalqaro tajribani umumlashtirish hamda o'rganish orqali budjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etishga doir takliflar ishlab chiqish.

Shu o‘rinda Hisob palatasining tomonidan zimmasiga yuklatilgan vazifalari doirasida amalga oshirilgan nazorat tadbirlarini tahlil qilamiz. 2022 yildagi mahalliy byudjetlarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotining tashqi auditi o‘tkazilganda asossiz ravishda mablag‘larni xarajatlar smetasini shakllantirish jarayonida byudjet tashkilotlariga ajratib bermasdan markazlashtirgan holda jamlab, keyinchalik boshqa yo‘nalishlarga qayta taqsimlanganligi aniqlandi. Jumladan, 71,2 mlrd so‘mlik qurilish va ta‘mirlash ishlarini bajarishda 7,5 mlrd so‘mlik asossiz ortiqcha mablag‘lar olingan hamda sifatsiz ishlar bajarilgan bo‘lsa, 30,8 mlrd so‘mlik asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar 6,7 mlrd so‘mga qimmat narxlarda xarid qilingan[4].

Shunday tadbirlarning yana biri Hisob palatasi tomonidan masofaviy tarzda olib borilgan risk-tahlil natijalariga asosan Surxondaryo viloyati Denov tumani maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlarida qisqa muddatli nazorat tadbiri bo‘lib o‘tdi. O‘tkazilgan tekshirish natijalari bo‘yicha jami 11,3 mlrd so‘mlik byudjet mablag‘larini maktabgacha ta‘lim bo‘limi markazlashgan buxgalteriyasining ayrim mas‘ul xodimlari tomonidan noqonuniy tarzda o‘zlashtirilganligi, shundan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 2022-2023 yillarda ishlamagan 141 nafar fuqarolar nomiga 4,8 mlrd so‘m ish haqi hisoblanib, noqonuniy o‘zlashtirilgan bo‘lib chiqdi[4].

Maxsus nazorat organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ham davlat byudjeti nazorati sohasida bir qator vazifalar yuklatilgan[5]:

- soliq va bojxona-tarif siyosatini muvofiqlashtirish;
- byudjet siyosatini yuritish va byudjetlararo munosabatlar sohasini takomillashtirish;
- davlat byudjeti ijrosini ta‘minlash va nazorat qilish;
- davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish va davlat moliyasini boshqarish;
- byudjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlari ijrosini amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va

masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2022 yil 14 fevraldagi PQ-128-son qaroriga [6] asosan Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari birinchi navbatda quyidagi yoʻnalishlarda budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida eʼtibor qaratish vazifasi yuklatildi, jumladan:

➤ budjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarning toʻgʻri hisoblanishi;

➤ ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan obyektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini oʻtkazish;

➤ budjet tizimi budjetlaridan toʻlanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash;

➤ davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish;

➤ davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini oʻrganish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat byudjetining xarajatlari optimallashtirishga oid quyidagi xulosalarni berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, davlat byudjetining xarajatlarini optimallashtirishda navbatda davlatning moliyaviy siyosatini toʻgʻri shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Bu siyosatning asosiy vazifasi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligini taʼminlashdir.

Ikkinchidan, xarajatlarni optimallashtirishda mahsulotlar va xizmatlar soni, sifati va narxi hisobga olish muhim boʻlib, mamlakatdagi iqtisodiy oʻzgarishlardan kelib chiqib bu xarajatlarni kamaytirish yoki oshirish mumkin.

Uchinchidan, xarajatlarni optimallashtirishda davlat moliyaviy resurslarini maqsadli va manzilli sarflash muhim ahamiyatga ega va bunda moliyaviy nazorat organlari faoliyatini optimallashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://uza.uz/uz> - O'zbekiston Milliy axborot agentligi
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 26.12.2013
3. O'zbekiston Respublikasining 01.07.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida" O'RQ-546-son Qonuni,
4. <http://www.ach.gov.uz/uz> - O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi rasmiy sayti
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 3.06.2023 yildagi 122-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi to'g'risida vaqtinchalik Nizom»
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2022 yildagi "O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" PQ-128-son qarori